



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ZAMONAVIY JAMIYATDA ESTETIK ONGNING FALSAFIY TALQINI

Sherova Dilorom Abdullayevna

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada estetik ong fenomeni zamonaviy jamiyat sharoitida falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori estetik ongning epistemologik (idrok va bilish), aksiologik (qadriyat va baholash), antropologik (insoniy tajriba va ijodkorlik) hamda ijtimoiy-madaniy (madaniyat, ommaviy axborot vositalari va globallashuv) o'Ichamlarini tizimli yoritishga qaratiladi. Klassik falsafiy yondashuvlar (Kant, Gegel) hamda zamonaviy nazariy konsepsiyalar (Adorno, Bodriyyar, Lotman, Jameson va boshqalar) asosida estetik ongning transformatsiya jarayonlari, uning ommaviy madaniyat va raqamli muhit ta'sirida fragmentarlashuvi, standartlashuvi va simulyativ tus olishi tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy sharoitda estetik ongning jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi o'rni, estetik qadriyatlar tizimining pluralizatsiyasi va estetik ideal masalasining yangi talqinlari ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Natijada estetik ong nafaqat go'zallikni idrok etish qobiliyati, balki ma'no yaratish, ijtimoiy identifikatsiya va madaniy kommunikatsiyani ta'minlovchi kompleks falsafiy hodisa sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: estetik ong; estetik idrok; estetik qadriyat; estetik ideal; did; estetik baho; go'zallik; ommaviy madaniyat; raqamli madaniyat; simulyakr; giperreallik; fragmentatsiya; postmodernizm; madaniyat industriyasi; semiosfera.

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Шерова Дилором Абдуллаевна

Ташкентский институт менеджмента и экономики, доцент

Аннотация

В данной статье осуществляется философский анализ феномена эстетического сознания в условиях современного общества. Основное внимание исследования сосредоточено на системном раскрытии эпистемологического (восприятие и познание), аксиологического (ценности и оценивание), антропологического (человеческий опыт и творчество), а также социокультурного (культура, средства массовой информации и глобализация) измерений эстетического сознания. На основе классических философских подходов (Кант, Гегель), а также современных теоретических концепций (Адорно, Бодрийяр, Лотман, Джеймсон и др.) анализируются процессы трансформации эстетического сознания, включая его фрагментацию, стандартизацию и приобретение симулятивного характера под воздействием массовой культуры и цифровой среды. В статье также рассматривается роль эстетического сознания в духовном развитии общества в современных условиях, освещаются процессы плюрализации системы эстетических ценностей и новые интерпретации эстетического идеала с научно-теоретических позиций. В результате эстетическое сознание обосновывается не только как способность к восприятию красоты, но и как сложное философское явление, обеспечивающее процесс смыслообразования, социальной идентификации и культурной коммуникации.

Ключевые слова: эстетическое сознание; эстетическое восприятие; эстетическая ценность; эстетический идеал; вкус; эстетическая оценка; красота; массовая культура; цифровая культура; симулякр; гиперреальность; фрагментация; постмодернизм; индустрия культуры; семиосфера.

PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF AESTHETIC CONSCIOUSNESS IN MODERN SOCIETY

Sherova Dilorom Abdullayevna

Tashkent Institute of Management and Economics, Associate Professor

Abstract

This article offers a philosophical analysis of the phenomenon of aesthetic consciousness in the context of modern society. The study focuses on a systematic examination of the epistemological (perception and cognition), axiological (values and evaluation), anthropological (human experience and creativity), and socio-cultural (culture, mass media, and globalization) dimensions of aesthetic consciousness. Drawing on classical philosophical approaches (Kant and Hegel), as well as contemporary theoretical frameworks (Adorno, Baudrillard, Lotman, Jameson, among others), the article examines the processes of transformation of aesthetic consciousness, including its fragmentation, standardization, and simulation under the influence of mass culture and the digital environment. The paper further explores the role of aesthetic consciousness in the spiritual development of society under contemporary conditions, highlighting the pluralization of aesthetic value systems and new interpretations of the aesthetic ideal from a scientific and theoretical perspective. As a result, aesthetic consciousness is understood not only as the capacity to perceive beauty, but also as a complex philosophical phenomenon that enables meaning-making, social identification, and cultural communication.

Keywords: aesthetic consciousness; aesthetic perception; aesthetic values; aesthetic ideal; taste; aesthetic judgment; beauty; mass culture; digital culture; simulacrum; hyperreality; fragmentation; postmodernism; culture industry; semiosphere.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining murakkablashuvi, globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish hamda raqamli madaniyatning keng yoyilishi insonning voqelikni idrok etish shakllarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayonda estetik ong insonning nafaqat go'zallikni idrok etish qobiliyati sifatida, balki ijtimoiy-madaniy tajribani anglash, qadriyatlarni baholash va ma'nolarni shakllantirish mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Estetik ong jamiyat ma'naviy hayotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u san'at, madaniyat, axloq va kundalik tajriba bilan uzviy aloqador holda rivojlanadi.

Falsafa tarixida estetik ong masalasi ko'plab mutafakkirlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Antik davrda Platon va Aristotel go'zallikni kosmik tartib va muvozanat bilan bog'lagan bo'lsa, Yevropa klassik falsafasida I. Kant estetik hukmi manfaatdan xoli, erkin idrok shakli sifatida asoslab berdi [2]. G. Gegel esa estetik ongni Mutlaq ruhning o'zini namoyon etish shakllaridan biri sifatida talqin qilib, san'atni ruhiy taraqqiyot bosqichi deb hisoblaydi [3]. Ushbu yondashuvlar estetik ongni nafaqat subyektiv hissiyot, balki chuqur falsafiy mazmunga ega hodisa ekanini ko'rsatadi.

XX asr va XXI asr boshlarida estetik ong muammosi yangi nazariy kontekstda qayta ko'rib chiqildi. Frankfurt maktabi vakillari (T. Adorno, M. Xorkxaymer) ommaviy madaniyat sharoitida estetik ongni standartlashuvi va soddalashuvini tanqid qildilar [4]. J. Bodriyyar zamonaviy jamiyatda simulyakrlar hukmronligi natijasida real va estetik tajriba o'rtasidagi chegaralar xiralashayotganini ta'kidlaydi [5]. Yu. Lotman madaniyatni belgilar tizimi sifatida tahlil qilib, estetik ongni mazkur tizimni anglashning muhim mexanizmi sifatida ko'rsatadi [6].

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar estetik tajribaning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Vizual obrazlarning ko'pligi, tezkor axborot oqimi va virtual makonning kengayishi natijasida estetik idrok fragmentarlashmoqda, ya'ni yaxlit obrazdan ko'ra parchalangan tasvirlar ustunlik qilmoqda. Bu holat estetik ongni mazmuni va tuzilmasida sifat jihatdan yangi o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Mazkur sharoitda asosiy muammo shundan iboratki, estetik ongning zamonaviy jamiyatdagi mohiyati, funksiyalari va rivojlanish yoʻnalishlari yetarli darajada kompleks falsafiy tahlil qilinmagan. Koʻplab tadqiqotlarda estetik ong alohida jihatlar doirasida koʻrib chiqilgan boʻlsa-da, uning gnoseologik, aksiologik va ijtimoiy-falsafiy oʻlchovlari yaxlit tizim sifatida kam yoritilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi estetik ongning zamonaviy jamiyatdagi falsafiy talqinini ochib berish, uning mazmuniy xususiyatlarini aniqlash hamda zamonaviy madaniyat sharoitida tutgan oʻrnini asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- estetik ong tushunchasining falsafiy mohiyatini aniqlash;
- estetik ongning asosiy tarkibiy qismlarini tavsiflash;
- zamonaviy madaniyat va raqamli muhitning estetik ongga taʼsirini tahlil qilish;
- estetik ongning jamiyat maʼnaviy taraqqiyotidagi ahamiyatini asoslash.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda estetik ong zamonaviy jamiyat sharoitida kompleks falsafiy hodisa sifatida talqin qilinib, uning transformatsiya jarayonlari tizimli yondashuv asosida ochib beriladi.

Metodlar

Mazkur tadqiqot sof nazariy-falsafiy xarakterga ega boʻlib, estetik ong muammosini tahlil qilishda umumfalsafiy hamda maxsus ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida dialektik yondashuv qabul qilindi, chunki estetik ong doimiy harakatda, rivojlanishda va qarama-qarshiliklar birligida namoyon boʻluvchi hodisa sifatida qaraladi. Dialektik metod estetik ongning tarixiy shakllari hamda zamonaviy koʻrinishlari oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni ochib berish imkonini yaratadi.

Tizimli yondashuv metodi estetik ongni murakkab va koʻp qatlamli tizim sifatida oʻrganishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv asosida estetik ongning gnoseologik (bilish bilan bogʻliq), aksiologik (qadriyatlar bilan bogʻliq) hamda ijtimoiy-madaniy jihatlari oʻzaro aloqadorlikda tahlil qilindi. Natijada estetik ongning alohida unsurlar majmui emas, balki yaxlit strukturaga ega hodisa ekanligi asoslandi.

Taqqoslash (komparativ) metodi yordamida klassik falsafadagi estetik ong talqinlari bilan zamonaviy falsafadagi yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi. Jumladan, I. Kant va G. Gegel qarashlari T. Adorno, J. Bodriyyar hamda Yu. Lotman konsepsiyalari bilan solishtirildi. Ushbu taqqoslash estetik ongning tarixiy taraqqiyot jarayonida mazmunan boyib borayotganini aniqlash imkonini berdi [7].

Tarixiy-mantiqiy metod estetik ong tushunchasining shakllanish bosqichlarini izchil oʻrganishga xizmat qildi. Antik davr falsafasidan boshlab zamonaviy postmodern yondashuvlargacha boʻlgan nazariyalar mantiqiy ketma-ketlikda koʻrib chiqildi. Bu esa estetik ongning har bir tarixiy davrda jamiyat ehtiyojlariga mos tarzda qayta talqin qilinganini koʻrsatadi.

Germenevtik metod falsafiy matnlarni mazmunan sharhlash va talqin qilish jarayonida qoʻllanildi. Ayniqsa, estetik ongga oid klassik va zamonaviy asarlarning asosiy gʻoyalari zamonaviy jamiyat kontekstida qayta oʻqildi. Ushbu metod estetik ongning yashirin maʼnolarini ochib berish hamda ularning hozirgi davr uchun ahamiyatini aniqlash imkonini yaratdi.

Shuningdek, abstraksiyalash va umumlashirish metodlari yordamida estetik ongning muhim xususiyatlari ajratib koʻrsatildi. Turli falsafiy yondashuvlarda ilgari surilgan qarashlar asosida estetik ongning umumiy modeli ishlab chiqildi.

Mazkur metodlar majmuasi estetik ongning zamonaviy jamiyatdagi falsafiy talqinini har tomonlama, tizimli va asosli yoritish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot jarayonida estetik ong inson ongining alohida va mustaqil shakli boʻlib, u voqelikni estetik idrok etish, baholash va maʼnolash mexanizmlarini oʻzida mujassamlashtiruvchi murakkab tizim ekanligi aniqlandi. Estetik ong nafaqat subyektiv hissiy holat, balki jamiyat

tomonidan shakllantirilgan madaniy tajriba va qadriyatlar majmuasiga tayanadi [8].

Estetik ongning gnoseologik jihati shundan iboratki, u insonning borliqni bilish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bilish faqat mantiqiy va ratsional shakllar bilan cheklanmay, hissiy-idrokij darajada ham amalga oshadi. Aynan estetik ong orqali inson voqelikdagi uyg'unlik, mutanosiblik va go'zallikni anglaydi. I. Kant ta'kidlaganidek, estetik hukm bilish va tasavvur qobiliyatlarining erkin o'zaro uyg'unligi natijasida yuzaga keladi [9].

Tadqiqot natijalari estetik ongning aksiologik tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi. Estetik ong qadriyatlarni shakllantiradi, ularni baholaydi va ierarxiasini belgilaydi. Jamiyatda mavjud estetik ideallar estetik ong orqali mustahkamlanadi hamda avloddan-avlodga uzatiladi. G. Gegelning fikricha, san'at insoniyatning o'z-o'zini anglash jarayonidagi muhim bosqich bo'lib, unda estetik ideal mujassam bo'ladi [10].

Zamonaviy jamiyat sharoitida estetik ongning mazmuni sezilarli darajada transformatsiyaga uchramoqda. Raqamli texnologiyalar keng tarqalishi natijasida estetik tajriba vizual xarakter kasb etmoqda. Inson tobora ko'proq ekran orqali vositalashgan obrazlar bilan muloqot qilmoqda. Bu esa estetik idrokning fragmentarlashuviga olib kelmoqda, ya'ni yaxlit obrazdan ko'ra parchalangan tasvirlar ustunlik qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ommaviy madaniyat sharoitida estetik ongning standartlashuvi kuchaymoqda. Estetik mahsulotlar ko'pincha tijoriy manfaatlarga bo'ysundiriladi. T. Adorno qayd etganidek, madaniyat industriyasi sharoitida san'at iste'mol mahsulotiga aylanib, estetik ongning tanqidiy salohiyati pasayadi.

Shu bilan birga, zamonaviy estetik ongda ambivalent jarayonlar ham kuzatilmoqda. Bir tomondan, estetik tajriba soddalashmoqda, ikkinchi tomondan esa yangi estetik shakllar vujudga kelmoqda. Raqamli san'at, media-san'at va interaktiv madaniyat estetik ongning yangi ko'rinishlarini shakllantirmoqda.

Tadqiqot natijalari estetik ongning ijtimoiy-madaniy tabiatga ega ekanligini ham tasdiqlaydi. Yu. Lotman ta'kidlaganidek, madaniyat belgilar tizimi bo'lib, estetik ong ushbu tizimni anglashning muhim mexanizmi hisoblanadi [11]. Bu jihat estetik ongning kommunikativ funksiyasini ochib beradi.

Shuningdek, estetik ong shaxs identifikatsiyasi jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Inson o'zini muayyan estetik ideallar bilan identifikatsiya qiladi, bu esa uning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari estetik ong zamonaviy jamiyat sharoitida ko'p qatlamli va dinamik hodisa sifatida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi.

Muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari estetik ongni zamonaviy jamiyat sharoitida faqat san'atga oid hodisa sifatida emas, balki inson mavjudligining ontologik va ma'naviy asoslari bilan bevosita bog'liq bo'lgan falsafiy kategoriya sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. Estetik ong bu yerda subyektiv hissiyotlar majmui emas, balki borliqni ma'nolashning alohida rejimi sifatida namoyon bo'ladi.

Klassik falsafada estetik ong asosan insonning erkin ruhiy faoliyati sifatida tushunilgan. I. Kant uchun estetik hukm manfaatdan xoli bo'lib, subyektning erkinligi bilan bevosita bog'langan edi [1]. Ushbu yondashuvda estetik ong bilish va axloqiy ongdan farqlanadigan, ammo ular bilan ichki aloqada bo'lgan mustaqil soha sifatida qaraladi. G. Gegel esa estetik ongni Mutlaq ruhning tarixiy o'zini ochib berish shakllaridan biri sifatida talqin qilib, san'atni insoniyat o'z-o'zini anglash jarayonining zaruriy bosqichi sifatida asoslaydi [2].

Zamonaviy falsafada ushbu klassik model tubdan qayta ko'rib chiqiladi. Frankfurt maktabi vakillari estetik ongning erkinlik potensialiga shubha bilan qaraydi. T. Adorno fikricha, madaniyat industriyasi sharoitida estetik ong avtonomligini yo'qotib, manipulyatsiya vositasiga aylanish xavfiga duch keladi [3]. Bu yerda estetik ongning tanqidiy funksiyasi susayib, u mavjud ijtimoiy tartibni legitimlashtiruvchi mexanizmga aylanishi mumkin.

Mazkur qarashlarni tadqiqot natijalari qisman tasdiqlaydi. Zamonaviy ommaviy madaniyatda estetik obrazlar tez iste'mol qilinadigan mahsulot sifatida ishlab chiqariladi. Biroq bu jarayon estetik ongning butunlay inqirozga uchraganini anglatmaydi. Aksincha, estetik ong yangi shakllarda qayta tashkil topmoqda.

Postmodern falsafa doirasida J. Bodriyyar tomonidan ilgari surilgan simulyakrlar nazariyasi estetik ong transformatsiyasining ontologik asoslarini ochib beradi [4]. Agar klassik estetikada obraz voqelikni aks ettirgan bo'lsa, hozirgi sharoitda obraz voqelikdan mustaqil yashay boshlaydi. Natijada estetik ong referensial asosini yo'qotib, o'z-o'ziga ishora qiluvchi tizimga aylanadi.

Bu jarayon estetik ongning semantik tuzilmasini tubdan o'zgartiradi. Ma'no chuqurligi o'rnini belgilar oqimi egallaydi. Shu nuqtada Yu. Lotman tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatning semiotik modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Lotmanga ko'ra, madaniyat belgilar tizimi bo'lib, estetik ong ushbu tizim ichida ma'nolarni ishlab chiqarish mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi [5]. Zamonaviy sharoitda esa ushbu mexanizm haddan tashqari tezlashgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, estetik ong hozirgi davrda ikki qarama-qarshi tendensiya o'rtasida rivojlanmoqda:

Birinchisi — estetik ongning soddalashuvi va yuzakilashuvi. Ikkinchisi — estetik ongning murakkablashuvi va differensiyalanishi.

Birinchi tendensiya ommaviy madaniyat, algoritmik tavsiyalar va vizual kontentning ko'pligi bilan bog'liq. Ikkinchi tendensiya esa zamonaviy san'atning eksperimental shakllari, konseptual san'at va raqamli estetika bilan ifodalanadi.

Mazkur dialektik ziddiyat estetik ongning ichki strukturasi ham aks etadi. Endilikda estetik ong nafaqat idrok qiladi, balki o'z idrokining shartlarini ham refleksiya qiladi. Bu holat estetik ongni refleksiv ong darajasiga ko'taradi.

Shu nuqtai nazardan, estetik ongni zamonaviy jamiyatda insonning ontologik xavfsizligini ta'minlovchi mexanizmlardan biri sifatida talqin qilish mumkin. Estetik tajriba insonni utilitar ratsionallikdan vaqtincha bo'lsa-da ozod qilib, mavjudlikning ma'nosini qayta his etish imkonini beradi.

Demak, estetik ongning transformatsiyasi faqat inqiroz emas, balki yangi falsafiy imkoniyatlar maydonidir.

Xulosa

Mazkur tadqiqot estetik ongni zamonaviy jamiyat sharoitida inson mavjudligining muhim ontologik, gnoseologik va aksiologik o'lchovlarini birlashtiruvchi murakkab falsafiy hodisa sifatida talqin qilish imkonini berdi. Estetik ong faqat san'atni idrok etish mexanizmi emas, balki insonning borliq bilan ma'naviy munosabatini shakllantiruvchi universal shakl ekanligi asoslandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, estetik ongning falsafiy strukturasi ko'p qatlamli xarakterga ega bo'lib, u estetik idrok, estetik hissiyot, estetik ideal hamda estetik qadriyatlar birligida namoyon bo'ladi. Ushbu unsurlar o'zaro aloqador holda insonning voqelikni estetik jihatdan o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida estetik ong chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Raqamli texnologiyalar, ommaviy kommunikatsiya vositalari va globallashtirish jarayonlari estetik tajribaning shakllanish mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Estetik idrok tobora ko'proq vizual obrazlar orqali amalga oshib, fragmentarlashuv xususiyatiga ega bo'lmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot estetik ong transformatsiyasini faqat inqiroz sifatida talqin qilish biryoqlama yondashuv ekanligini ko'rsatdi. Zamonaviy sharoitda estetik ongning yangi shakllari — raqamli san'at, media-san'at, interaktiv estetika — vujudga kelmoqda. Bu esa estetik ongning moslashuvchan va ochiq tizim ekanligini tasdiqlaydi.

Klassik va zamonaviy falsafiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, estetik

ong tarixan insonning erkinlikka intilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib kelgan. Hozirgi davrda ham estetik ong insonni utilitar ratsionallik chegaralaridan chiqishga undovchi, mavjudlikning chuqur ma’nolarini qayta kashf etish imkonini beruvchi kuch sifatida saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqot estetik ongning zamonaviy jamiyatdagi falsafiy talqinini tizimli ravishda asoslab, uning jamiyat ma’naviy taraqqiyotidagi o‘rnini ochib berdi. Olingan natijalar estetik ong muammosini madaniyat falsafasi, san’at falsafasi hamda ijtimoiy falsafa doirasida yanada chuqurroq tadqiq etish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda estetik ongning raqamli makondagi yangi shakllari, virtual identifikatsiya jarayonlari bilan aloqasi hamda estetik qadriyatlarining global va milliy kontekstda o‘zaro munosabati alohida ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Кант И. Критика способности суждения. – М.: Мысль, 1994.
2. Гегель Г.В.Ф. Эстетика: в 4 т. – М.: Искусство, 1971.
3. Каган М.С. Философия культуры. – СПб.: Петрополис, 1996.
4. Адорно Т. Теория эстетики. – М.: Республика, 2001.
5. Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляция. – М.: Постум, 2015.
6. Лотман Ю.М. Семиосфера. – СПб.: Искусство, 2000.
7. Хоркхаймер М., Адорно Т. Диалектика просвещения. – М.: Канон, 1997.
8. Бердяев Н.А. Смысл творчества. – М.: Республика, 1994.
9. Хайдеггер М. Исток художественного творения // Работы и размышления. – М.: Республика, 1993.
10. Гадамер Х.-Г. Истина и метод. – М.: Прогресс, 1988.
11. Лиотар Ж.-Ф. Состояние постмодерна. – СПб.: Алетейя, 1998.
12. Беньямин В. Произведение искусства в эпоху его технической воспроизводимости. – М.: Медиум, 1996.
13. Кассирер Э. Философия символических форм. Т. 1. – М.: Университетская книга, 2002.
14. Делёз Ж. Логика смысла. – М.: Академический проект, 1998.
15. Фуко М. Слова и вещи. – М.: Прогресс, 1994.